SCIENCE SHINE
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
Volume 2, Issue 1 March 31, 2023

ZOONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Dilnoza Ismailova Shavkatovna
O‘zMU Jurnalistika fakulteti 2-kurs magistranti
dilnoza19850426@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hayvon arxisemali leksemalar qatnashgan frazeologizmlar lingvopoetik jihatdan tahlil qilingan. Bunda yozuvchining uslubi va so‘z qo‘llash mahorati haqida ham so‘z boradi.

Kalit so‘z: arxisema, frazeologizm, ibora, barqaror birikma, leksema, zoonimlar, lingvopoetika, metafora, o‘xshatish

Annotation: In this article, phraseologisms involving lexemes with animal archisemes are analyzed from a linguopoetic point of view. It also talks about the writer's style and skill in using words.

Keywords: archiseme, phraseologism, phrase, stable combination, lexeme, zoonyms, linguopoetics, metaphor, simile.

Frazeologik birliklar til egasi bo‘lgan xalqning ma’naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash tarzi, o‘tmishi, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bogliqdir. Uzoq muddatli taraqqiyot mahsuli hisoblangan frazeologilk birliklar jamiyat tajribasini aks ettirib, uni bir avloddan ikkinchisiga yetkazadi. Iboralar - voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘zi o‘ngida aniq, va to‘la gavdalantirishda frazeologik iboralarning o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Badiiy adabiyotda ayniqsa hayvon arxisemali leksemalar qatnashgan frazeologizmlar ham ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bu frazeologizmlar asarlarida inson va uning ichki dunyosi , xarakteri, tashqi ko‘rinishi va holatini yorqinroq ochib berish uchun xizmat qiladi.

Maqsad va vazifa: O‘zbek badiiy asarlarida inson va uning ichki dunyosi , xarakteri, tashqi ko‘rinishi va holatini yorqinroq ochib berish maqsadida hayvon arxisemali leksemalar qatnashgan frazeologizmlaridan keng foydalanilganligini ochib berish

Mulohaza va natijalar:

Lop etib dadam ko‘z o‘ngimga keldi. Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, odamlarga ma’rifat tarqatishni o‘ylagan, hamisha ozoda kiyinib yuradigan, mayizdekkina muloyim dadam…

(O‘. Hoshimov “ Ikki eshik orasi “ 264- bet)

Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan iborasi - o‘ta yuvosh ma’nosida ishlatiladi. Qo‘y arxisemasi qatnashgan iboralar yoki maqollar juda ko‘p hollarda ijobiy ma’noda ishlatiladi. Qo‘ydek odam birikmasida ham yuvoshlik va o‘z haqqini talab qilolmaydigan inson nazarda tutiladi. Ushbu iboraga ma’nodosh *chumchuqqa ham ozor bermagan* iborasi ham badiiy asarlarda ishlatiladi.

Masalan: *Huzur-halovat neligini bilmagan odam… Chumchuqqa ham ozor bermagan odam… Bizga yoshligimizdan: “Yaxshi odam bo‘l”, “Birovga ozor berma ” deb uqtirishgan.*

(Zulfiya Qurolboy qizi “Qadimiy qo‘shiq” 198-bet)

Rahmatli singlisi tiriklik paytlaridek oralaridan ola mushuk o‘tgan. Asli shu Yasmina sabab opa-singil qattiq urushib qolishgandi.

(Zulfiya Qurolboy qizi “Qadimiy qo‘shiq” 220-bet)

Oralaridan ola mushuk o‘tgan iborasi xafalashib, arazlashib qolmoq ma’nosida ishlatiladi. Sinonimlari: oralari buzilmoq, oralari ochiq. Oralaridan qil o‘tmaslik iborasi esa ushbu iboraning antonimi sifatida ishlatiladi

- Ibrohim deganlari uyiga bostirib kiribdi, - dedi qo‘shni ayollardan biri menga o‘zini yaqin olib.- O‘zi anchadan beri shu yoqqa zir qatnab yuruvdi. Endi ersiz ayol bo‘lganidan keyin it ham, bit ham… Tavba, erkaklarga ham hayronman, bitta xotinga muncha pashshaxo‘rda bo‘lishmasa! Ibrohimning bip-binoyiday xotini bor-a!

(Zulfiya Qurolboy qizi “Qadimiy qo‘shiq” 243-bet)

It ham bit ham iborasi hamma so‘ziga teng keladi. Hamma so‘zini bu joyda har qanday insonga nisbatan ishlatib bo‘lmaydi, chunki salbiylik bo‘yog‘I bor shunchaki hamma emas, qalang‘i- qasang‘i (ba’zan bu iboraning o‘rniga dordan qochganlar iborasi ham ishlatiladi.)so‘ziga teng keladi desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Yo‘q, keyin ma’1um bo‘ldiki, Hamidulla buzoqning haqi bor deb sigirning sutini ichmaydigan taqvodor odamlar toifasidan ekan.

(Abdulla Qahhor ”Sinchalak” 168-bet)

Buzoqning haqi bor deb sigirning sutini ichmaydigan iborasi nihoyatda kam uchraydigan iboralardan bo‘lib birovning haqidan hazar qiladigan, o‘ta taqvodor insonlarga nisbatan ishlatiladi. Abdulla Qahhordek buyuk so‘z san’atkori ushbu iboradan o‘z asarida mohirlik bilan foydalana olgan.

Ey, qanaqa go‘l odamsan o‘zing. Bektemirov ilonning yog‘ini yalagan odam. Kaltak yeb indamay ketaveradi deb o‘ylaysanmi?

(Said Ahmad “Hukm”)

Ilonning yog‘ini yalagan iborasi ayyor, mug‘ombir so‘ziga teng keladi. Varianti: ilon yog‘i yegan. Ushbu iboraga antonim sifatida ammamning buzog‘i, burning qani desa og‘zini ko‘rsatmoq (lapashang, o‘ta sodda) iboralari bor.

Ha, sendaqalarni tushunib oldim, ignadek gapni tuyadek qilib yuborasanlar. (A.Muhiddin. “Qitmir”)

Ignadek gapni tuyadek qilib yubormoq- mubolag‘a qilib bo‘rttirib yubormoq, sinonimi: pashshadan fil yasamoq.

Rustam bilan Shahnoza o‘sha kuni ro‘paradagi uyda to‘y bo‘layotganidan bexabar edilar. Domda it egasini tanimaydi.

(O‘tkir Hoshimov “Tushda kechgan umrlar” 36-bet)

It egasini tanimaydi iborasi- pala-partish, alg‘ov-dalg‘ov, tartibsizlik so‘zlariga teng keladi. Ushbu ibora asosan to‘y yoki yig‘inga o‘xshagan ko‘p odam yig‘iladigan marosimlarga nisbatan ishlatiladi. Bu ibora so‘zlashuv uslubida ham keng qo‘llaniladi.

Nima uchun bir kunga
Muhlat berdim deb unga
O‘lgudayin pushaymon,
Ichini it tirnadi.

(H.Olimjon “ Oygul va Baxtiyor”)

Ichini it tirnamoq iborasi yashirin holda ruhan bezovtalanmoq, tashvishlanmoq ma’nolarida keladi. Variantlari: ichini ola mushuk tirnamoq,ichini it tatalamoq, ich etini yemoq. Ushbu iboraning antonimi sifatida dunyoni suv bossa to‘pig‘iga chiqmaydi yoki, dunyoni suv bossa o‘rdakka ne g‘am iboralari ishlatiladi.

Xulosa: Yozuvchilar, odatda, tasvir maqsadiga muvofiq, iboralarni tanlab qo‘llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar.Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o‘zgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq, iboralari sayqallanib, yangi ma’no nozikliklari bilan to‘yinib boradi.

Badiiy asarlarda hayvon nomlari qatnashgan iboralar, xalq maqollari va matallaridan ijodkorlar o‘ziga xos uslubda unumli foydalanishdi. Yozuvchi va ijodkorlar ijodiy yondashgan holda tayyor ibora va maqollarga yangicha ma’no berish bilan birga ularning yangidan yangi o‘ziga xos individual shakllarini yaratdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
2. Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug’ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984.
3. Abdurahimov M. O‘zbekcha- Ruscha frazeologik lug’at T. 1980
4. Hakimov M. Yozuvchi va xalq tili. – Toshkent: Fan, 1971. – 176 b.
5. Abdulla Qahhor “Anor” hikoyalar to‘plami T. 1980-yil
6. Luqmon Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar” T. 2012-yil
7. Zulfiya Qurolboy qizi “Qadimiy qo‘shiq” T. 2012-yil O‘tkir. Hoshimov “ Ikki eshik orasi” T. 2018-yil

Internet saytlari.

8. https://kk.convdocs.org/docs/index-138269.html?page=4
9. http://samxorfil.uz/yangiliklar/malika-ayyor-dostoni-tilida-zoonimlar
10. https://cyberleninka.ru/article/n/zoonimiya-proizvedeniy-m-m-prishvina